

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
1-son qarori**

2023-yil 9-fevral
soat 17:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiat Ustaviga muvofiq 2023-yilning 9-fevral kuni yakka tartibda qabul qilindi va yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv a’zolari mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish hamda boshqaruv va nazorat organlariga to‘lanadigan rag‘batlantirish va kompensatsiyalar to‘g‘risidagi nizom loyihasini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv a’zolari mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish hamda boshqaruv va nazorat organlariga to‘lanadigan rag‘batlantirish va kompensatsiyalar to‘g‘risidagi nizom loyihasi tasdiqlash uchun taqdim etildi (*ilova qilinadi*).


Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):

1. “Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv a’zolari mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish hamda boshqaruv va nazorat organlariga to‘lanadigan rag‘batlantirish va kompensatsiyalar to‘g‘risida”gi nizomi yangi tahrirda ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Dehqonobod kaly zavodi” AJ boshqaruv raisi v.b. (Usarov) mazkur qarorni “Korporativ axborot yagona portalı” (www.openinfo.uz) va jamiatning rasmiy veb-sayti (www.uz-potash.uz)da belgilangan tartibda e’lon qilinishi ta’milasini.

**“O‘zkimyosanoat” AJ
boshqaruv raisi v.v.b.**




Y. Korjikov